



## XALQ DEPUTATLARI NUROBOD TUMAN KENGASHINING QARORI

141100, Nurobod tumani, Mustaqillik ko'chasi, 2-uy, Tel: (66) 633-16-34, (66) 633-18-66, e-mail: nurobod.t@exat.uz

2022 - yil 15 - aprel

VI-47-68-7-99-K/22

Nurobod tuman hokimligi

**Xalq deputatlari Nurobod tumani Kengashining 2021-yil 30-dekabrda  
“Nurobod tumanida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik  
shaxslar hamda mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari  
asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslarga 2022-yil uchun  
belgilangan bazaviy soliq stavkasi asosida yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash  
to‘g‘risida”gi VI-40-96-7-99-K/21-son qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida**

Tumanda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, soliq yukini kamaytirish, soliq yig‘uvchanligini va mahalliy budjetlarning qo‘shimcha daromadlarini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalari hamda xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2022-yil 12-martdagi VI-59-50-7-0-K/22-son qarori va tuman Davlat soliq inspeksiyasi (2022-yil 15-martdagi 19/6-01065- son) va tuman hokimligi moliya bo‘limining (2022-yil 17-martdagi 01-02-38/72-son) xulosalariga asoslanib, xalq deputatlari Nurobod tumani Kengashining oltinchi chaqiriq, qirq sakkizinchi sessiyasi

### **QAROR QILADI:**

1. Xalq deputatlari Nurobod tumani Kengashining 2021-yil 30-dekabrda  
“Nurobod tumanida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik  
shaxslar hamda mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida  
yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslarga 2022-yil uchun belgilangan  
bazaviy soliq stavkasi asosida yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi  
VI-40-96-7-99-K/21-son qarorining 1-ilova (2022-yil Nurobod tumanida qishloq  
xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun MFYlar kesimida yuridik shaxslardan  
olinadigan yer solig‘i stavkalari miqdori) va 2-ilova (2022-yil Nurobod tumanida  
mahallalarning iqtisodiy rivojlantirishiga qarab jismoniy shaxslarning yer solig‘ini

hisoblash uchun oshiruvchi yoki kamaytiruvchi stavkalar (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlardan tashqari) miqdori)lari mazkur qarorning 1 va 2-ilovalariga muvofiq yangi tahrirda bayon etilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda PF-6121-sonli “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni bilan xalq deputatlari shahar va tumanlar Kengashlariga 1-2-ilovalar bilan belgilangan soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni kiritish huquqi berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimligi matbuot kotibi (E.Pardayev) “Nurobod” gazetasi tahririyati (N.Botirova)larga mazkur qarorni “Nurobod” gazetasida rasmiy e’lon qilish, 2022 yil budjet-soliq siyosatidagi o‘zgarishlar, soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.Suyarov) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Ibragimov) zimmasiga yuklansin.

5. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi

Sessiya raisi



B.Oblanov

Xalq deputatlari Nurobod tuman  
Kengashining  
2022 yil 15 apreldagi  
VI-47-68-7-99-K/22-son qaroriga  
1-ilova

**Tumanda 2022-yil uchun yuridik shaxslar bo'yicha qishloq xo'jaligiga  
mo'ljallanmagan yerlar uchun MFYlar kesimida yuridik shaxslardan  
olinadigan yer solig'i stavkalari**

T/R	Mahalla nomi	Nurobod tuman uchun 2022-yil uchun belgilangan bazaviy solig stavkasi	2022 yil uchun tasdiqlangan kamaytiruvchi va oshiruvchi stavka	Mahalla kesimida 1 gektar uchun yer solig'i, (so'mda)
1	Amir Temur nomli MFY	21 350 000,0	1,30	27 755 000,0
2	Mehnatkash MFY	21 350 000,0	0,70	14 945 000,0
3	Navro'z MFY	21 350 000,0	1,30	27 755 000,0
4	Oqsoy MFY	21 350 000,0	0,70	14 945 000,0
5	Sazag'on MFY	21 350 000,0	1,20	25 620 000,0
6	Sarikul MFY	21 350 000,0	0,70	14 945 000,0
7	Saroy MFY	21 350 000,0	1,20	25 620 000,0
8	Tepaqul MFY	21 350 000,0	1,20	25 620 000,0
9	Sharq yulduzi MFY	21 350 000,0	1,30	27 755 000,0
10	Chortut MFY	21 350 000,0	0,70	14 945 000,0
11	Boshquduq MFY	21 350 000,0	0,70	14 945 000,0
12	Girdiqo'rg'on MFY	21 350 000,0	0,70	14 945 000,0
13	Do'stlik MFY	21 350 000,0	0,70	14 945 000,0
14	Jom MFY	21 350 000,0	0,70	14 945 000,0
15	Oltinsoy MFY	21 350 000,0	0,80	17 080 000,0
16	Omondara MFY	21 350 000,0	0,70	14 945 000,0
17	Tegirmonboshi MFY	21 350 000,0	0,70	14 945 000,0
18	Ulus MFY	21 350 000,0	1,20	25 620 000,0
19	Xalqabod MFY	21 350 000,0	1,20	25 620 000,0
20	Jarquduq MFY	21 350 000,0	0,70	14 945 000,0
21	Yuksalish MFY	21 350 000,0	1,20	25 620 000,0
22	Qilichli MFY	21 350 000,0	1,20	25 620 000,0
23	Qo'rg'oncha MFY	21 350 000,0	0,70	14 945 000,0
24	Mash'al MFY	21 350 000,0	1,20	25 620 000,0
25	Nurbuloq MFY	21 350 000,0	1,30	27 755 000,0
26	Lolazor MFY	21 350 000,0	0,70	14 945 000,0
27	Nurdum MFY	21 350 000,0	0,70	14 945 000,0
28	Po'latchi MFY	21 350 000,0	1,20	25 620 000,0
29	Ittifoq MFY	21 350 000,0	0,70	14 945 000,0
30	Ag'ron MFY	21 350 000,0	0,70	14 945 000,0
31	Arabota MFY	21 350 000,0	0,70	14 945 000,0
32	Buloqboshi MFY	21 350 000,0	0,70	14 945 000,0
33	Bunyodkor MFY	21 350 000,0	0,70	14 945 000,0
34	Navbahor MFY	21 350 000,0	0,70	14 945 000,0
35	Olg'a MFY	21 350 000,0	0,70	14 945 000,0

36	Sahoba MFY	21 350 000,0	0,70	14 945 000,0
37	O'rtabuz MFY	21 350 000,0	0,70	14 945 000,0
38	Chorvador MFY	21 350 000,0	0,70	14 945 000,0
39	Nurafshon MFY	21 350 000,0	0,70	14 945 000,0

\*Nurobod tumani bo'yicha yuridik shaxslar uchun qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun 1 ga uchun bazaviy soliq stavkasi 21,4 mln so'm belgilangan.

Xalq deputatlari Nurobod tuman  
Kengashining  
2022 yil 15 apreldagi  
VI-47-68-7-99-K/22-son qaroriga  
2-ilova

**2022-yil tuman bo'yicha jismoniy shaxslar bo'yicha ularning iqtisodiy rivojlantirishiga qarab yer solig'ini hisoblash uchun oshiruvchi yoki kamaytiruvchi stavkalar (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlardan tashqari)**

T/R	Mahalla nomi	Nurobod tuman uchun 2022-yil uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi	2022 yil uchun tasdiqlangan kamaytiruvchi va oshiruvchi stavka	Mahalla kesimida 1-kv.m uchun yer solig'i, (so'mda)
1	Amir Temur nomli MFY	192	1,00	192,0
2	Mehnatkash MFY	192	0,70	134,4
3	Navro'z MFY	192	1,00	192,0
4	Oqsoy MFY	192	0,70	134,4
5	Sazag'on MFY	192	0,70	134,4
6	Sarikul MFY	192	0,70	134,4
7	Saroy MFY	192	0,70	134,4
8	Tepaqul MFY	192	0,70	134,4
9	Sharq yulduzi MFY	192	1,00	192,0
10	Chortut MFY	192	0,70	134,4
11	Boshquduq MFY	192	0,90	172,8
12	Girdiqo'rg'on MFY	192	0,70	134,4
13	Do'stlik MFY	192	0,70	134,4
14	Jom MFY	192	0,70	134,4
15	Oltinsoy MFY	192	0,90	172,8
16	Omondara MFY	192	0,70	134,4
17	Tegirmonboshi MFY	192	0,70	134,4
18	Ulus MFY	192	0,90	172,8
19	Xalqabod MFY	192	0,90	172,8
20	Jarquduq MFY	192	0,70	134,4
21	Yuksalish MFY	192	0,90	172,8
22	Qilichli MFY	192	0,70	134,4
23	Qo'rg'oncha MFY	192	0,70	134,4
24	Mash'al MFY	192	0,70	134,4
25	Nurbuloq MFY	192	1,00	192,0
26	Lolazor MFY	192	0,70	134,4
27	Nurdum MFY	192	0,70	134,4
28	Po'latchi MFY	192	0,70	134,4
29	Ittifoq MFY	192	0,70	134,4
30	Ag'ron MFY	192	0,70	134,4
31	Arabota MFY	192	0,70	134,4

32	Buloqboshi MFY	192	0,70	134,4
33	Bunyodkor MFY	192	0,70	134,4
34	Navbahor MFY	192	0,70	134,4
35	Olg'a MFY	192	0,70	134,4
36	Sahoba MFY	192	0,70	134,4
37	O'rtabuz MFY	192	0,70	134,4
38	Chorvador MFY	192	0,70	134,4
39	Nurafshon MFY	192	0,70	134,4

\*Nurobod tumani bo'yicha 1 kv.m uchun bazaviy soliq stavkasi 192 so'm etib belgilangan.